

Тепенин 2011 30.108 1-52

2011-YILDA QUVONCH BILAN QUVLASHIB YURING!



Vatan yagonadir,
Vatan bitfadir!

Yulduzi

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
3-yanvar
N:1
(66802)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



HIKMAT IZLANG YAROQLI,
TA'TIL O'TSIN MAROQLI...

Olovuddin ORIPOV olgan surat

Fozil bola
oltin topadi

2-bet

O'QUVCHAGA
NIMA
AFJAL?

3-bet

«Men dunyoning eng chiroqli
mamlakatida yashayman!» deydi
bolakay.

FOZIL BOLA OLTIN TOPADI



Muharrir so'zi

Birinci voqea:

O'tgan yil ilk bahor kunlarida xorijdan kelgan mehmon bodomning oppoq gullaganini ko'rib: «Yurtingiz husniga mos gul ekibsiz, ko'rib ko'nglim yorishdi», dedi. Shunda men bolakayning gapini esladim.

Ikkinchi voqea:

«Men fozil bola bo'lishim uchun nima qilishim kerak?» Bobo nevarasiga: «Buning uchun oyog'ing ostidagi tuproqning buyukligin anglash kerak!» deya javob qildi. Soddadil nevaraning ko'zlari hayron piriqiradi: «Tuproqning buyukligin qanday anglash mumkin, bobojon?!» «Tuproqni anglash uchun har kuni gazet-jurnal, kitob

o'qish, nasihatni tinglay bilishing, mehnatkash, rostgo'y bo'lishing shart! Ana shunda fozil bola bo'lasan. Fozil bola oltin topadi».

Aziz bolalar!

Nega so'zimni aynan shu ikki voqeadan boshladik? Gapimizning indollosidan sezib turibsizki, go'zal Vatanga munosib fozil inson bo'lishni orzu etish eng yaxshi tilak, eng ezgu maqsaddir. Albatta, shunday inson bo'lishni diliga jo etib, ana shu oliy maqsad yo'lida borayotgan tengdoshlarining ko'rib, ularga havas qilamiz.

Fozil bola bo'lish degani, ertaga baxtli bo'laman, degani emasmi? Chunki fozil inson to'g'ri fikrlaydi, qonun-qoidalariga jiddiy amal qilib, osuda yashaydi, eng muhimi, u o'z joni va Vatani bitta deb biladi.

Keyingi voqea:

Kecha oldimga oltinchi sinf o'quvchisi keldi. O'zini tanishtirib, sinfdoshlari bilan gazetamizga obuna bo'lganini, do'stalaridan birining hikoyalar yozishini, uning ijodidan bittasini olib kelganini, lekin na ismini, na manzilini e'lon qilmalikni, bu gap ikkimiz oramizda sir qolishini iltimos qildi. Ertasi o'sha o'quvchining maktabiga telefon qilib, sinf rahbari bilan suhbatlashdim. Oldimga kelgan bola eng a'lochi o'quvchi ekan. Do'stlari ham a'lochi ekan. Ularning ahilligi va bilimdonligini eshitib, juda xursand bo'ldim. Hikoyaning taqdiriga kelsak, yaqinda uni o'qiydiz. O'sha bola o'zining lavha, xabarini ham olib kelishi mumkin edi. Do'sti uchun beminat xizmat qildi. Bu ham

oliyanoblik belgisi. O'yalamanki, ertaga bu bola fozil inson bo'lib yetishadi.

Bolalar adiblari orasida Tursunboy Adashboyevda shunday jonkuyarlik xislati bor: u kishi mamlakatimizning qaysi maktabiga, o'quv yurtlariga bormasinlar, iqtidorli ustoz va o'quvchilarning ijod namunalardan olib kelib, gazetaga tavsiya etadilar. Bu biz uchun doimo yangilik va yaxshigina yordam bo'ladi va bundan ijodkorlarning o'zlari ham xursand bo'ladilar.

Quvonchli voqea:

Bugun siz sevgan va sizning katta minbaringiz bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasi 75.000 nusxada bosilyapti. Bu hali hammasi emas. Hali to'liq hisob-kitob qilinganicha yo'q, bu dastlabki natija, xolos. Adadimiz hali bundan ham oshadi. Eng muhimi, siz a'lochi o'quvchilar, buyuk Vatanimizning bo'lajak fozil o'g'lonlari, yigit-qizlari o'z gazetangizni qo'llab-quvvatladingiz. Buning uchun barchangizga behad minnatdorlik izhor etamiz.

2011-yil barchangizga omadli kelsin!

Otaxonimiz ta'kidlaganlaridek, siz fozillikka intilayotgan bolalarning topganlari oltin bo'lsin!

O'quvchi yon daftariga

«GLOBALLASHUV» ATAMASI QACHON PAYDO BO'LGAN?

Aziz bolalar!

Bu so'z tez-tez qulog'ingizga chalinturadi. Gazetamizning o'tgan sonlarining birida Anora Yo'ldoshevaning «Globallashuv» she'rini e'lon qilgan edik shundan so'ng tengdoshlaringiz qo'ng'iroq qilishib, bu to'g'rida kengroq ma'lumot berishimizni so'rashdi.

Bu atama dastlab 1983-yilda amerikalik olim T.Levittning «Garvard biznesrevyux jurnalida bosilgan maqolasida tilga olingan edi. Prezident bobongiz I.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida globallashuvning mazmuni-mohiyati aniq ifodalangan.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, bu jarayonning ijobiy jihatlari e'tibor bergan holda uning salbiy jihatlari ogoh bo'lishingiz zarur.

TARAQQIYOTGA QANDAY ERISHILDI?

Germaniya, Yaponiyani bugun zo'r davlatlar deb maqtaysiz. Lekin ularning qaysi yo'l bilan taraqqiyotga erishgani haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Ular qanday qilib jahon maydoniga chiqdi, yetakchi davlatlar qatoridan o'rin oldi?

Bu davlatlarda, avvalambor, xalq birlashdi. Ular qalbida milliy g'urur, milliy iftixor, ertangi kunga mustahkam ishonch paydo bo'ldi. O'z oldiga qo'yg'an marra-larga erishishi uchun zarur dasturlar ishlab chiqildi, butun millat bir tan-u bir jon bo'lib, besh, o'n, yirig'ma yil bo'lsa ham qattiq ishlaymiz, yuksak darajaga yetamiz, degan yagona maqsad bilan yashadi.

Mana, aziz bolalar, bugun qanday yashashimiz kerak. Hamjihattikda gap ko'p, deb shuni aytadilar!

HAVAS BILAN YASHANG!

Hasad odamni baxtsizlikka boshlaydi, nomini badnom etadi.

XVIII asrning buyuk bastakori Volfgang Amadey Motsart o'z davrining mashhur odamlaridan biri edi. Uning yaqin do'sti hisoblangan Antonno Saleri hasad tufayli uni 35 yoshligida zaharlab o'ldirgan. Hasadgo'ylar Leonardo da Vinchi, Rafael va Mikelanjelo yaratgan o'lmas asarlarni pichoq bilan kesib tashlagan, kislota sepib, ularga zarar yetkazgan.

Motsart, Leonardo da Vinchi, Rafaelar ulug'lansa, Antonno Saleri va unga o'xshash hasadgo'ylar nomi nafrat bilan tilga olinadi.

Shunday ekan, hasad bilan emas, havas bilan yashang!

2010-yil oxirlab, 2011-yilning ostonasida turibmiz. «Barkamol avlod yili»da imkon darajasida ustozlar va o'quvchi yoshlarning xizmatida bo'ldik. Ularning intilishlari, faolliklari bizga hamisha i'tihom baxsh etib keldi. Muhtisalarimiz ishonchi esa bizga mas'uliyat yuklaydi. Hamkorligimizni yangi yilda ham davom ettirish niyatidamiz. Eng asosiyi, Yangi yilni quvonch bilan kutib olaymiz. Boisi, Xorazm, Buxoro, Navoiy hamda Sirdaryo viloyatlarida obunachilarimiz soni har yilgidan ortib ketibdi.



ZUBAYDA olgan surat

Mirobod tumanidagi 154-maktab o'quvchilari «Tong yulduzi»ni sevib o'qishadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan viloyatlarning Xalq ta'limi boshqarmasi boshliqlari hamda obunaga mutasaddi xodimlari bola tarbiyasidek mas'ul ishda biz bilan hamnafasliklaridan mamnun bo'ldik. Umum ishida bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz qanday yaxshi! Yagona istagimiz bu viloyat o'quvchilari yana bir harakat bilan peshqadamlar safidan o'rin olishsin.

Shuningdek, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi obuna ishlari ham nihoyatda ibratli. Bu viloyatlar bilan izma-iz kelayotgan namanganlik o'quvchilar negadir sustlashib qolishdi. Andjonlik o'quvchilar esa farg'onalik va namanganlik tengdoshlariga qaraganda ancha orqada qolib ketishmoqda. Biz ularni peshqadamlar safida ko'rishga o'rganib qolgandik. Ilg'orlar safiga o'tib olishlariga ishonamiz. Bu holga aniqlik kiritish maqsadida mazkur viloyatlarga safar hozirligini ko'ryapmiz.

Jizzax va Surxondaryo viloyatidagi bolajonlardan esa hol so'ragimiz keldi.

– O'z nashringizga obuna bo'lishda biror muammo yo'qmi?

MINBARLARDA O'RNINGIZ BO'LSIN!

Boshqalardan ortda qolib ketishingizning boisi nimada?

Ha, aytganday, keyingi o'n kunlikda Toshkent viloyati va Toshkent shahrida obuna borasida biroz jonlanish sezilmoqda. Biroq, bu hali kam. Qoraqalpog'istonlik o'quvchilar ham harakatga tushib qolishgani quvonarli.

Respublikamizdagi ko'plab taniqli ustozlar dars jarayonida gazetamizdan unumli foydalanishayotgani haqida quvonib gapirishadi. Bu esa bizni ruhlantiradi, yangi-yangi g'oyalar beradi.

Tahririyatning yangi yil uchun atalgan sandig'i to'lib-toshgan. El ardog'idagi insonlar bilan suhbatlar, ilg'or ustozlar tajribasi yoritilgan lavhalar, taniqli yozuvchilarning bolalarga atalgan yangi asarlari. Ulardan bebahra qolishingizni sira ham istamasdik. «Tong yulduzi» Sizning erkin minbaringiz, unda o'z o'rmingiz bo'lsin!

Obuna esa davom etmoqda!

Yusuf ABDULLAYEV





Farrux degan bolakay 2010-yilni o'ziga kayfiyatda kuzatdi. Nega, deysizmi? Chunki u barcha tengdoshlarining diqqat markazida, ustozlarining e'tiborida bo'ldi. Uning zukkoligi bizni ham befarq qoldirmadi.

Qaydasan, 198-maktab, deya Hamza tumaniga yo'l oldik.

ganimizda esa yuqoridagi fikrimiz nechog'li to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldik. Tengdoshingiz Farruxjon ikki yildirki, muntazam ravishda «Tong yulduzi» gaze-



«Ilm afzalmi yo-ki...?» O'quvchilar ana shu savolga oid kichik sahna ko'rinishi tayyorlashibdi. Hossiyat Xudoynazarova, Gulchehra Rashidova kabi o'quvchilar tomonidan ijro etilgan bolalar, albatta, ilm afzalligini tushunib yetishdi. Rosti ham shu-da, axir bilim baxtga eltuvchi yo'l-ku!

O'QUVCHIGA NIMA AFZAL?

Maktabga kirib borishimiz bilan bizni mehribon, bolajon va tirishqoq ustoz Dilfuza opa To'xtaxo'jayeva iliq kutib oldi. Maktab faollar zaliga kirib borganimizda, bolajonlar bizni qarsaklar bilan qarshi olishdi. Bayramona bezatilgan sahnada o'quvchilar tomonidan tayyorlangan devoriy gazetalar, ko'zni qamashtiruvchi archa, uning o'yinchoqlari kattayu kichikka birdek quvnoq kayfiyat ulashar edi. Havaskor raqqosa qizlarning chiqishlari, bilimdonlarning savol-javoblari, she'r va qo'shiqlari, sahna ko'rinishlaridagi mahoratlari bizni behad sevintirdi.

Ayniqsa, «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan mashhur adiblarning dil so'zlari, she'rlari, hikmatlari-yu maqollarini yod olib, burro-burro qilib



aytishganida, dilimizdagi quvonch sevinch ko'z yoshlariga aylandi. Ertangi kunimiz yoshlarning qo'lida, harakatida, kerak bo'lsa, qudratida degan purma'no so'zning isboti yaqqol namoyon bo'lgandi.

4-«A» sinf o'quvchisi Farruxjon Sultonbekov bilan yaqindan tanish-

tasining taxlamlarini yig'ib borar, uni sinfdoshlari bilan birgalikda o'qib, muhokama qilib, o'z fikr-mulohazalarini bildirib boshar ekan.

Zalga sevimli gazetasi taxlamlarini arang ko'tarib kirib kelgan Farruxjondan barcha tengdoshlari o'rnak olishgan bo'lsa, ne ajab?!

UNI SARDOR DEYISHADI

Shahnoza 4-«A» sinf sardori. O'zining tashkilotchiligi, chaqqonligi, ziyrakligi bilan o'rtog'lari ishonchini qozongan. Har bir ishda ustozining eng yaqin yordamchisi, do'stlarining ko'makchisi ekanligini kuzatdik. Shuningdek, Shahnoza Sultonxo'jayeva shahardagi Berdaq nomli 10-musiqa maktabiga qatnar ekan. U fortepyanoni maroq bilan berilib chalganida, ofarin, deb yubordik. Musiqa tugaganda o'quvchilarning davomli gulduros qarsaklari yangradi.

G'AYRATLI O'QITUVCHI

Maktabdagi barcha ustozlarga ana shu nisbatni ishlatishimiz mumkin. Ammo 4-«A» sinf o'quvchilarining sevimli ustozlari Ozoda opa hammadan ham g'ayratli ekan.

Aynan shu sinf o'quvchilaridan 23 nafarining «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishlariga ana shu talabchan opa bosh-qoshlar.



Zuhra MUHSIMOVA olgan suratlar

MAQSAD - VAZIFAMIZ BIR

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bizning muqaddas burchimiz jondan aziz farzandlarimizga zamon talablari darajasida bilim berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, voyaga yetkazishdir. Respublikamizning barcha maktablarida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan dekabr oyi «Boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi fanlar oyiligi» deb e'lon qilingan edi.

Barcha o'qituvchilarni ijodiy faollikka chorlagan mazkur oylik bizning maktabimizda ham ko'ngildagidek o'tkazildi. Unda har bir ustozning mahorati, ish tajribasi yana bir bor sinovdan o'tkazildi.

Tumanda bo'lib o'tgan fan oyiligining yakuniy festivalida maktabimiz o'qituvchilari ham muvaffaqiyatli qatnashishdi. Bir-biridan zukko ustozlarimiz turli nominatsiyalarda munosib o'rinlarni qo'lga kiritishdi. «Eng yaxshi devoriy gazeta» nominatsiyasi g'olibi bo'ldik.

Shuningdek, boshlang'ich sinf



Sahifani Ma'mura YIGITALI qizi, Feruza SOYIBJON qizi tayyorlashdi

o'qituvchisi, metod birlashma rahbari Aziza Yo'ldosheva «Eng ijodkor o'qituvchi» deb topildi. Uning yozgan she'rlari, tuzgan skanvordlari, tayyorlagan ko'rgazmali qurollari orqali yangilikka intiluvchan, iqtidorli o'qituvchining yana bir qirrasini kashf etdik.

Dilfuza ISLOMOVA, Uchtepa tumanidagi 228-maktab direktori, pedagogika fanlari nomzodi



TO'LIB-TOSHIB OQISHLARI BOR...

Farg'ona tumanining Avval qishlog'ida bir bolakay yashaydi, ismi Diyorbek.

bo'lsa, maktabdagi baholari a'lo bo'lishi talab qilinarkan. Tumandagi 38-maktabning 5-sinfida «4» va «5» baholarga tahsil olayotgan Diyorbek Murodov uchun bu shart muammo bo'lmadi. Markaz qoshidagi fototexnika to'garagiga a'zo bo'lib, ustози Xolmurod aka Mirkomilovdan saboq ola boshladi. Dastlab oddiyroq o'yinchoqlar, keyinchalik avtomobil, samolyot va raketalarning modellari yaratdi. Ikki marotaba ixtirochi bolalar tanlovida qatnashib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Lekin xayolidan uni anchadan buyon o'ylantirib kelayotgan chiqindilar muammosi nari ketmasdi. Uning yechimini topish uchun juda ko'p qidi, izlandi, nimalarnidir qurdi, buzdi...

Nihoyat, maqsadiga erishdi, mayda shox-shabbalar, qurigan o'to'lanlar, xazonlar, hatto qog'oz chiqindilarini ham maydalab beruvchi o'g'it ishlab chiqarish ko'chma mashinasi modelini yaratdi. Shu tariqa ko'plab savollaridan biriga javob topolganidan ko'ngli taskin topdi. Gap yoshda emas, boshda, deganlari shu bo'lsa kerak-da!

Farg'ona viloyatida 22 ta O'quvchi Yoshlar Texnik Ijodiyot Markazlari faoliyat yuritayotgan bo'lib, ular qoshidagi 452 ta texnik yo'nalishdagi to'garaklarda 20619 nafar o'quvchi-yoshlar bo'sh vaqtlarini mazmunli, maroqli o'tkazishyapti.

Bolaligidan o'ta qiziquvchanligi, atrofidagi voqea va hodisalarga befarq emasligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. Shundanmi, «U kim? Bu nima? Qachon? Qayerda?» kabi savollari bilan gohida kattalarni bezor qilib yuborardi...

– O'yijon, – so'rab qoldi u bir kuni tandirda non yopayotgan onasining yoniga kelib. – Kuzda daraxtlarning yaproqlari qovjirab yerga to'kiladi, a?

– Ha, to'kiladi, ana ko'rib turibsan-ku, hovli, ko'chalar bilan bitta bo'lib yotibdi.

– Ularni qayerga tashlashadi?

– Hamma har xil yo'l tutadi: kimdir supurib, chiqindixonaga tashlaydi, yana kimlardir bir yerga to'plab, yoqib yuborishadi. Ayrimlar esa chuqur qazib, ko'mib tashlashadi... Nimaga qiziqib qolding?

– O'zim, shunchaki...

Diyorbek onasiga, shunchaki, dedi-yu, lekin bu haqida ko'p bosh qotiradigan bo'lib qoldi: qanday qilinsa, xazonlar-u qurigan shox-shabbalardan unumli foydalansa bo'ladi?..


Ana shu qiziqish uni Farg'ona tumanidagi O'quvchi Yoshlar Texnik Ijodiyot Markazi sari yetakladi. Ammo markazga a'zo bo'lishning bir sharti bor ekan: u ham



Diyorbekni o'ylantirayotgan bunday savollar hali juda mo'l. Ular asnosida yaratiladigan yangi-yangi ixtirolar, qilinajak kashfiyotlar esa yurtimiz ravnagi, xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qilishiga ishonamiz.

Mustaqil diyorimizning so'lim bir qishlog'ida yana bir buloq ko'z ochdi, uning hali to'lib-toshib, mavjlanib oqishlari bor.

Mening nomim
«Qiziqarli geografiya».
Qadimda barcha bi-
limdon bobokolonlari-
miz ham men bilan jid-
diy qiziqib kelishgan.



TANISHING:

«QIZIQARLI GEOGRAFIYA»!

Abu Rayhon Beruniy bobomiz «Hindiston» asarida, Muhammad Qoshg'ariy bobomiz «Turkiy so'zlar devoni» kabi bir qator asarlarida dunyodagi notanish mamlakatlar, daryo, ko'l, tepalik va tog'lar, hayvonlar, xalqlar va ularning urf-odatlarini, ular yashayotgan joylarning nomlari, kelib chiqishi, kimlar bilan qo'shni yashashlari, o'sha yerlardagi insonlarning qanday tillarda so'zlashishlari haqida hayratomuz jug'rofiy ma'lumotlarni keltirib o'tishgan.

Meni dunyoga keltirgan muallifim ham sizlarni ona sayyoramizda va uning tevarak-atrofida ro'y beradigan ajoyib-u g'aroyib jug'rofiy hodisalarni «Yer sayyorasi», «Havo», «Suv», «Quruqlik», «O'simliklar», «Hayvonlar» va «Odamlar, udumlar» deb atalgan yetti bo'limda berilgan.

Mening sahifalarimni diqqat bilan mutolaa qilsangiz, Quyosh atrofida aylanib yuruvchi Merkuriy sayyorasining ota-bobolarim tomonidan Utorid, Veneraning Zuhra yoki Cho'lpon, Mars-Mirrix, Yupiter-Mushtariy, Saturnning esa Zuhul nomlari bilan atalganini bilib olishingiz mumkin.

Yana odamning og'irligi turli sayyorada turlicha kelishini ham bilib olasiz. Masalan, og'irligi 70 kilogramm keladigan odam Oyga chiqsa, uning vazni 11,7 kg, Merkuriyda 18 kg, Marsda 26 kg, Unarda 59 kg, Venerada 63 kg, Saturnda 19 kg, Neptunda 80

kg. va Yupiterda 185 kg. keladi. Nima uchun shunday bo'lishini bilishni xohlaysizmi? Buning sababi shuki, turli sayyoralarda odam vaznini har xil bo'lishi osmon jismlarining radiusi va massasiga bog'liq. Sayyoraning massasi qancha katta bo'lsa, uning tortish kuchi ham shuncha katta bo'ladi, binobarin, undagi jismlar ham shuncha og'ir bo'ladi.

Dunyoda Yangi yilni kimlar birinchi bo'lib kutib olishadi, degan savolga ham meni o'qisangiz, to'g'ri va aniq javob olasiz. Darhaqiqat, ko'pchilik, shu jumladan, yaponlar ham qadim-qadimdan o'z yurtlarini «Kun chiqar mamlakat» deb bilishardi va bu fikr hammaning miyasiga singib ketgan edi. Aslida bunday emas, chunki har bir yangi kun kabi Yangi yil ham sanalar (chislo, vaqt) o'zgarish chizig'idan boshlanadi.

O'simliklar, hayvonlar, odamlar-udumlar kabi bo'limlarda ham tusha tegmagan qiziqarli jug'rofiy ma'lumotlarim borki, ularni o'qisangiz, mazza qilasiz.

Xulosa qilib aytganda, besh ming nusxada bosilib chiqqan «Qiziqarli geografiya» asarini o'qigan va uqgan o'quvchining jug'rofiy bilim doirasini kengayishi, shubhasiz.

Samandar MASHARIPOV,
Toshkent shahar, Yunusobod
tumanidagi
86-maktab o'quvchisi

YETAKCHI SOZ SO'RAMIZ

2010-yil biz
«Kamalak»chilar uchun
juda quvonchli keldi.
Tashkilotimiz a'zolari
barcha ishlarda faol ishtirok
etishga harakat qilishdi.
Ayniqsa, «Mehr-shafqat»,
«Umid», «Sog'lom avlod»
yo'nalishi a'zolarining
ishlari barcha o'quvchilarga
o'rnak bo'ldi.

«Kamalak umidlari» jamoasi
«Kamalak bilimdonlari» tanlovining
maktab bosqichida g'olib bo'lib,
tuman bosqichida birinchi o'rinni
oldi. Viloyat bosqichida esa eng
kuchli jamoalar bilan bellashib,
«Eng faol jamoa» nominatsiyasini
qo'lga kiritdi. Shuningdek, jamoa
a'zolari tayyorlangan albom
hakamlar hay'ati tomonidan «Eng
yaxshi Nizom asosida tayyorlangan
albom» deya e'tirof etildi va barcha
jamoalarga namuna sifatida
ko'rsatildi.

«Kamalak umidlari» jamoasi
sardori 7-«A» sinf o'quvchisi
Xusnora Erkinova hamda jamoa
a'zolaridan X.Ibodullayeva, R.
Nurjonov, A.Sultonova, S.Ma-
daminova, SH.Matsafayeva, D.Av-
lyaquliyeva, S.Abdullayeva kabi-
larning ziyrakligi, bilimdonligi, eng
asosiyi, hamjihatligi bois bu kabi
yutuqlarga erishdi.

Umid qilamanki, maktabimiz
o'quvchilari 2011-yilda ham yangi-
yangi yutuqlari bilan tengdoshlariga
o'rnak bo'lishadi.

Rahima OTAJONOVA,
Xorazm viloyati, Shovot
tumanidagi
41-maktab yetakchisi

Surxon vohasining Sariosiyo tumanidagi Dashnobod qishlog'ida 19-maktab bor. Uning adabiyotga ixlosmand o'quvchilari borliqning sehriga mahliyo bo'lib, ash'orlar bitishadi, ko'plab gazeta va jurnallar o'qishadi. Aynan o'sha maktabga «Tong yulduzi» gazetasining yuzlab nusxasi yetib borishi ham bejiz emas. Yurtimiz go'zalligini havas bilan kuylayotgan o'g'il-qizlarimiz ijodlariga omad tilaymiz.

BARKAMOL AVLOD MADHIYASI

Davlatimiz bildirdi ishonch,
Biz yosh avlod bo'ldik bundan shod.
Mustaqil yurt ishonchin oqlab,
Bo'lajakimiz barkamol avlod!

Niyatimiz oliydir dilda,
Ezgu maqsad – yurt bo'lsin obod.
Buyuk maqsad sari yo'l oldik,
Biz barkamol navqiron avlod!

O'tmish buyuk, kelajak porloq,
Elimizga bo'laylik qanot.
Oliy maqsad sari birlashib,
Hamroh bo'lsin, barkamol avlod!

Dildora HAYITOVA,
19-umumta'lim maktabining
9-«V» sinf o'quvchisi



CHO'QQILARGA NOR BO'LING

Ho'l mevasiz bir bog'san,
Ko'rkam, go'zal, zo'r tog'san.
Qaldirg'ochsiz bahorsan,
Qalbindagi nahorsan.

Xafa bo'lma, suluv tog',
Seni g'arib bildimmi?
Qaldirg'oching yo'q debon,
Biroz xafa qildimmi?

Gullab yashnash uchun,
Qayg'ursaydi odamlar.
Bog'laring qutqarishga,
Ulgursaydi odamlar.

Suluv tog'lar, bor bo'ling,
Cho'qqilarga nor bo'ling.
Mevalar pishsa agar,
Ieni xabardor qiling.

Shahnoza RAJABOVA,
7-sinf o'quvchisi

ISTIQLOL

Ozodlik va tinchlik – ulug' bir ne'mat,
Bu so'zlar biz uchun bebaho ziynat.
Tinchligimiz bo'lsin abadol-abad,
Istiqlol, bayraming muborak bo'lsin!

Farzandlar ko'nglida o'zgacha g'urur,
Binolaring ko'kka bo'y cho'zar mag'rur.
Bunday kunlar uchun o'zingga shukur,
Istiqlol, bayraming muborak bo'lsin!

Sumbula XURRAMOVA,
9-«D» sinf o'quvchisi

USTOZIM!

Ustozim – mehribonim,
So'zlaydilar muloyim.
Darsda a'lo o'qisam,
Suyub maqtaydi doim.

Baxtimizga sog' bo'ling,
Yuz ming bahorni ko'ring.
Biz o'yinqaroqlarning,
Sho'xligimiz kechiring.

Olam sirlarin bizga,
O'rgatdingiz o'zingiz.
Bizlarga saboq bo'lar,
Har bir ayigan so'zingiz.

Charos UMAROVA,
9-«G» sinf o'quvchisi

MURUVVATLI DUNYO

Kattalarga hurmat, kichikka izzat,
Ona xalqimizda bor shunday shior.
Ollohning nazari tushgan bu yurtda,
Keksalar e'zozda, yoshlar baxtiyor.

Obod qilinadi mahalla, qishloq.
Ularning ko'rkidan shodlanar dillar.
Mehnatkash xalqimiz juda tirishqoq.
Yangi marralarni ko'zlar ko'ngillar.

Duoga ochadi bobolar qo'lni:
– Yurtimiz tinch bo'lsin, osmon musaffo.
Xalqimiz hamisha ardog'da bo'lsin,
Mehrli insonlar chekmasin jafu.

Go'zal HAYITOVA,
9-«A» sinf o'quvchisi

BOBOMNING QUVONCHI

*Men bobom bilan har qancha
fajrlansam arziydi. Ular
respublikaga taniqli olim, qomunchilik
organlarida ishlaydigan minglab
mutaxassismlarning ustozlari.*



Shu kunlarda bobom Qodir Ernazarov o'zlarining 85 yilligini nishonlayaptilar. Ana shunday qutlug' yoshga kirgan bo'lsalar ham hali bardam, tetiklar. O'zlarining sevimli ishlaridan bir kun ham qolmaydilar. Ayni damda Toshkent Davlat yuridik institutida talabalarga tarixdan saboq beradilar.

Bobom bizlarga Ikkinchi jahon urushida nemis-fashistlarga qarshi kurashgan vaqtlarini o'kinch, ichki bir dard bilan so'zlaydilar. Biz ularning alamli hikoyalarini tinglab, ko'rsatgan jasoratlariga, tengsiz matonatlariga qoyil qolamiz, g'ururlanamiz.

Bobojonning Ra'no buvimiz bilan oila qurishganiga ellik yildan oshdi. Uch o'g'ilni tarbiyalab, o'qitib, xalqimizga munosib farzandlar qilib voyaga yetgazishgan. O'n nabira va uch evaraning ardog'idalar.

Bobom va buvimlar bundan ikki yil muqaddam Toshkent shahrida o'tkazilgan «Oila – muqaddas Vatan» shiori ostidagi ko'rik-tanlovda «Eng namunali oila» sifatida birinchi o'ringa sazovor bo'lishgandi.

Biz ham ular kabi elimizning ardoqli farzandlari bo'lish uchun a'lo baholarga o'qib, yetuk mutaxassis bo'lishga harakat qilamiz.

Muhammadjon Qodir Bahrom o'g'li,
Toshkentdagi 17-maktabning 7-sinf o'quvchisi

YANGI YIL SOVG'ASI

Mana, bolajonlar uchun qishki ta'til ham boshlandi. Uni katta-yu kichik, ayniqsa, bolalar intiqlik bilan kutadilar.

Bugun Mustaqillik maydonida bo'lgan kishi o'zini Yangi yilning ertaklar shaharchasiga kelib qolgandek his etadi. Rang-barang chiroqlar bilan bezatilgan ulkan archa atrofida bolalarning sho'x-shodon kulgilari, kuy-qo'shiq, teatrlashtirilgan tomoshalar avjida.

2011-yilning 10-yanvariga qadar davom etadigan teatrlashtirilgan shodiyonalar aynan bolajonlar uchun tashkil etilgan. Qorbobo va Qorqiz tomonidan taqdim etilayotgan sovg'alar ularni xushnud etmoqda. Ertaklar shaharchasidan joy olgan archa atrofida

bolalarning shodon o'yinlari bayram ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda.

Yangi yil bayramiga barcha teatrlashtirilgan jamoalari alohida tayyorgarlik ko'rgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bayram sayli tarzida o'tkazilayotgan Yangi yil shodiyonalari mamlakatimizning barcha hududlarida, madaniyat va istirohat bog'larida, maydon va xiyobonlarda tashkil etilgan. Bunday shodiyonalar bolajonlar uchun Yangi yilga atalgan eng katta sovg'adir.

Shahlo XOLMATOVA



MUSHUKLARIM

Mushuklarim ajoyib.
Mushuklarim g'aroyib.
Itlardek ovqatlarin
Qolmas aslo talashib.
Bir hovlida yursa ham,
Bitta uyda tursa ham,
Salomlashar har sahar
Bir-birini yalashib...

SHOTURSUNNING
XOLASI

Qayda ko'rsa
Achomlab,
Qo'yvorma
Ahvol so'rab:

– Bo'yларingdan
Shotursun,
Xolagingan
O'rgilsin.

ANORLAR

Bahor chog'i bog'iga
Anor ekdi Anorxon.
Suvlar tashib anordan
Terlar to'kdi Anorxon.



Uch yil o'tib oradan
Duv-duv tugdi anorlar.
Mushtdek-mushtdek yoqutga
To'lib ketdi anorlar.

Rang-ro'yari o'xshaydi
Anorxonning yuziga.
Shirinligi o'xshaydi
Anorxonning o'ziga.

Abdurahmon AKBAR

«CHOL»
BOLA

Dadasidan suyunchi
Olar olti yashar Xol:
– Ertalab tishim tushib,
Bo'lib qoldim yana «chol»!

BO'SH
QOZONDA
NIMA BOR?

Jo'jalarim «kishi-kishi»lab
Yulduzxon horib-tolar.
Oshxonadan ularni
Necha bor quvib solar.

Qaysargina jo'jalar
Timim bilmay aylanan.
Yulduzsiz, bo'sh qozonni
Cho'qimoqqa shaylanar.

Yosh oshpazning bu holdan
Hayronligi o'rtadi.
Qo'liga neki tushsa,
Ular tomon otadi...

– Bo'sh qozonda nima bor?
– Bo'sh qozonda nima bor?
Gina qilar jo'jalar
Yulduzdan bo'lib bezor.

Bilmasang, bilib qo'y deb
So'zlashar takror-takror.
– Qozonda sen damlagan
Palovning qirmochi bor!

SHOMIRZALIK
TAVAKKAL

Tavakkal QODIROV! Betakror,
shirali ovozi, sozi bilan muxlislari
qalbidan chuqur o'rin olgan bu
qo'shiqchining nomi o'z davrida
juda mashhur bo'lgan. Farg'onalik
san'atkor Bahodirjon aka bilan
turmush o'rtog'i Muhabbat opa
ham uning ashaddiy muxlislari
edilar. Hatto o'g'il farzand ko'rish-
sa, ismini Tavakkal qo'yishni niyat
qilishgandi. Dili pok insonlarning
niyati, albatta, ijobat bo'larkan. Uch
qizdan so'ng dunyoga kelgan o'g'il
farzandga san'atkorning ismini
qo'yishdi.



Qo'shtepa tumani, Shomirza qishlog'idagi 23-umumta'lim maktabining
5-sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan Tavakkal ismiga monand san'atga
bolalikdanoq mehr qo'ydi.

Oynayi jahon orqali yangragan qo'shiqlarga hamohang ravishda
kuylashga, qo'shiq so'zlarini yodlab olishga intilardi. Bu xonadonda
asosan Tavakkal Qodirovning qo'shiqlari tinglanardi. Zehnli bolakay
qo'shiqchining «Dog'man» qo'shig'ini o'rganib olganida, atigi besh yoshda
edi.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, iqtidorsiz bolaning o'zi bo'lmaydi.
Biz kattalarning e'tibor va parvarishimiz tufayligina uni yuzaga chiqarish
mumkin. Buni chuqur anglagan Tavakkalning maktabdagi ustozlari – musiqa
fani o'qituvchisi Akmaljon Akbarov umidli shogirdiga alohida e'tibor bilan
qarayapti. Yaqinda u «Bu mening Vatanim» nomli ilk qo'shig'ini jo'shib
kuylaganida, otasi Bahodir akaning ko'ksi faxr va iftixor tuyg'ulari bilan
to'lgan bo'lsa, onaizorining ko'zlarida sevinch yoshlari halqalandi...

Zero, Tavakkal Qodirov singari iqtidorli o'g'il-qizlar nafaqat ota-onasi,
balki yurtimiz, millatimizning ham porloq kelajagi timsolidirlar.

AZIZA

HUNARI OZ SHOVVOZLAR

(Otam hikmatidan...)

Yozgi ta'til balalar,
Soy-sohilga borishdi.
Qarang, shu onda nogoh,
Hayrat ichra qolishdi.

Qarasalar, bir gala,
G'ozlar yetib kelishdi.
O'zlaridan-o'zlari,
Bolalarga kerishdi.

Bilib qo'ying, bolalar, –
Dedi gerdayib g'ozlar.
Jami parranda ichra,
Biz g'ozlarmiz shovvozlar.

Xohlasak, keng havoda,
Samo bo'ylab uchamiz.
Istasak, maysa uzra,
Yer tepkilab chopamiz.

Yana suvda osuda,
Sho'ng'ib-sho'ng'ib suzamiz.
Xullas, raqobat chiqsa,
Har hunarda o'zamiz.

Tinglab bo'lgach bolalar,
Tilloxon olib so'zni,
Dedi qo'yibsiz bekor,
Tashvishga solib o'zni.

Mayli, uchdinglar deylik,
Lochindek ucholmaysiz.
Ana chopdinglar deylik,
Ohudek chopolmaysiz.

Ochig'i, xullaskalom,
Baliqdek suzolmaysiz.
Ming chiranmang, baribir,
Ulardek bo'lolmaysiz.

Maslahatim, maqtanmang,
Fikr qilinglar biroz.
Aql kelsa yordamga,
Hayotingiz bo'lar soz.



(Masal)

Chala-chulpa hunarni,
So'zlaysiz bizga bozlab.
Tasdiq etmas hech bir jon,
Siz g'ozlarni e'zozlab.

Puxta, aniq kasbni,
Olmabsizlar, ey g'ozlar.
Xulosa: mag'rurlanmang,
Hunari oz shovvozlar.

Tilloxonni aqliga,
Ko'rganlar qoyil qoldi.
Baliq, Ohu, Lochin-u,
Bolalar ham tan oldi.

Kamchiliklarin sanab,
G'ozlar yuziga soldi.
Tilloxon g'olib kelib,
G'ozlar uyalib qoldi.

Siz aziz bolajonlar,
G'ozlar holin ko'rdingiz.
Bekor o'tkazmang vaqtni,
Oltin teng umringiz.

Naziriy g'ozlar sabab,
Yozdi bu hikoyatni.
Aslo kasb etmangizlar,
Maqtancholik odatmi?

A'zam NAZIRIY

Yosh «Paxtakor»chilar tez orada o'zbek futbolining dovrug'ini dunyoga taratadi

Bolalarning eng sevimli o'yini futbol ekanligi barchaga ayon. Mahallada yoki maktabda o'rtoqlari bilan to'p tepmagan bolani topish qiyin. Ba'zi o'smirlar faqat bo'sh vaqtlarida futbol o'ynash bilan cheklanishsa, boshqalari o'smirlar sport bilan chinakamiga shug'ullanishga intilishadi. Ular futbol maktablari, akademiyalarida millionlar o'yinining sir-asrorlarini o'zlashtirishadi.

Jonajon O'zbekistonimizning eng mashhur jamoasi Toshkentning «Paxtakor» futbol klubi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki «Paxtakor» mustaqillik yillarida o'tkazilgan 19 ta milliy chempionatdan sakkiztasida oltin medallarga sazovor bo'ldi, O'zbekiston kubogini o'n marta qo'lga kiritdi.

Biz mazkur jamoaning futbol klubi matbuot xizmati boshlig'i MIRZAHAKIM aka TO'XTAMIRZAYEV huzurida bo'lib, yil sarhisobi haqida so'zlab berishlarini so'radik.

– Barchamizga ma'lum, «Paxtakor»chilarning xalqaro maydonlardagi o'rni beqiyos. Ayni damda jamoaning qit'ada tutgan o'rni haqida fikrlashsak.

– 2002-yili Osiyo futbol konfederatsiyasi jamoamizni qit'ada eng kuchli deb e'tirof etgani

bejiz emas. «Paxtakor» Osiyo chempionlar ligasida muntazam ishtirok etib kelayotgan qit'amizdagi yagona klub ekanlari tahsinga loyiq. Ular 2007-yili MDH va Boliqbo'yi mamlakatlari Hamdo'stligi chempionlari kubogini qo'lga kiritib, kelgusi yili ushbu turnir finaligacha yetib borishgan va FIFA prezidenti Zepp Blaterning olqishlariga sazovor bo'lishgan.

Uzoq va yaqin o'tmishda «Paxtakor» sharafigi himoya qilganlar orasida Birodar Abduraimov, Gennadiy Krasnitskiy, Vladimir Fyodorov, Mixail An, Mirjalol Qosimov kabi futbol yulduzlari bor. Bugungi kunda ishqibozlar milliy terma jamoamiz yetakchilari Odil Ahmedov, Aleksandr Geynrix kabi betakror iste'dod sohiblari o'yinidan zavq olishadi. Ularning yonida 2008-yili yoshlar o'rtasida Osiyo chempionatida kumush medallarni qo'lga kiritgan Sherzodbek Karimov, Alisher Azizov, G'ulom O'runov, Akmal Xolmurodov va Murod Xolmuhammedov singari yoshlar tajriba orttirishmoqda.

– Mirzahakim aka, 2010-yil o'smirlar terma jamoasi uchun omadli keldi. Yaqinda poytaxtda o'tkazilgan Osiyo chempionati ularga Meksikada bo'lib o'tadigan JCHga yo'l ochdi. Aynan shu bahslarda «Paxtakor» futbol akademiyasining tarbiyalanuvchilari yetakchilik qilishdi.

– Darhaqiqat, Osiyo chempionatidagi kumush medal «Paxtakor» futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilariga 2011-yili Meksikada o'tadigan JCHda ishtirok

etish huquqini berdi. O'smirlar sardori Abbosbek Maxstaliyev, chempionatning eng yaxshi futbolchisi deya e'tirof etilgan Temur Hakimovdek futbolchilarimiz tez

poytaxtda istiqomat qiladigan, balki mamlakatimizning turli viloyatlaridan ham iqtidorli bolalar qabul qilinadi. Buning uchun shart-sharoitlar yetarli. Futbolchilar 13 yoshga to'lganlarida, maxsus sinovlardan o'tib, Respublika olimpiya xazinalari kolleji bilan tuzilgan shartnomaga binoan katta futbolga tayyorgarlikni akademiyaning maxsus bo'limida davom ettiriladi.

– Bu borada murabbiylar tanlash ham asosiy e'tiborda bo'lsa kerak-a?

– Mashg'ulotlarni olib borayotgan murabbiylar orasida yaqin o'tmishning futbol yulduzlari ham bor. Xizmat ko'rsatgan sport ustasi Osiyo o'yinlari va mamlakat chempioni, O'zbekiston kubogi sohibi Shuhrat Rahmonqulov, mamlakat chempioni, kubok egasi Jasur Abduraimov va boshqalarni aytib o'tishimiz mumkin.

– Ko'cha-ko'yda «Paxtakor»ning bolalarini tez-tez uchratamiz. Kiyimlariga havas qilsa arziydi.

xazinalari kolleji vakillarini esa 96 ochkoga ortda qoldirishdi.

– Klub mutasaddilari akademiya tarbiyalanuvchilarining mahoratini oshirishga qay darajada imkon topmoqdalar?

– Yosh futbolchilarimizni respublikamizdagi musobaqalardan tashqari xorijda o'tkaziladigan turnirlarga ham muntazam ravishda yuborish uchun imkoniyatlar bor. Uzoqqa bormay, so'nggi ikki mavsumdagi xalqaro turnirlarni sanab o'tsam:

2009-yili 1996-yilda tug'ilgan futbolchilar jamoasi Ukraina poytaxtida o'tgan «Viktor Banikov kubogi» finalida kiyevlik «Dinamo»chilarni mag'lubiyatga uchratib, bosh sovrinni olib kelishdi. So'ngra, ushbu jamoa Rossiyaning Krasnodar o'lkasida tashkil etilgan xalqaro turnirning ham g'olibi bo'lishdi. Dilshod Nuraliyev shogirdlari Ispaniyada Butunjahon bolalar futbol kuni munosabati bilan tashkil etilgan turnirda

munosib qatnashishdi. Madridning «Atletiko» klubi kabi mashhur jamoalarning

«PAXTAKOR»NING ERTASI PORLOQ

orada o'zbek futbolini bayroqdori bo'lmish jamoaning asosiy tarkibiga da'vogarlik qila boshlaydi.

Chindan ham mamlakatimizning olimpiya, yoshlar, o'smirlar terma jamoalari negizini aynan «Paxtakor» futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari tashkil etishadi. Bu bejiz emas, albatta. Iste'dodli yoshlarning kamol topishi klubda bolalar va o'smirlar bilan ishlashning zamon talablari asosidagi samarasidir.

– «Paxtakor» futbol akademiyasiga bolalar necha yoshdan qabul qilinadilar?

– Yetti yoshga to'lgan bolalar tajribali murabbiylar bilan mashg'ulotlarda futbol sirlari bilan tanishishga kirishadilar. Keyinchalik ular orasidan haqiqiy iqtidorlari saralab olinadi hamda shu yoshdagi bolalardan tuzilgan birinchi jamoada o'ynay boshlaydilar.

– Qolgan bolalar-chi?!

– Ular ham ikkinchi va uchinchi jamoalarda mashqlarni davom ettiradilar. Oylar, yillar o'tib bu jamoalarda mahorati oshgan bolalar birinchi jamoaga o'tkaziladi.

– Futbol akademiyasiga viloyatlardan kelgan bolalar qay tarzda qabul qilinadilar?

– Navbatdagi mavsumlarda nafaqat

– Xuddi shunday. Futbol klubi rahbariyati bolalar va o'smirlar jamoalari asosiy tarkibidagi bolalarni bir xildagi – qishki va yozgi ust-bosh bilan ta'minlashni yo'lga qo'ygan. Hatto 7-8 yoshli bolalar jamoasi ham ana shunday sport liboslariga ega bo'lishadi. Bolalikdanoq ushbu futbolchi bolalar o'zlarini «Paxtakor»ning to'laqonli a'zosi ekanliklarini his qilishlari, g'olibona an'analar davomchilari bo'lib yetishishlari uchun jamoa faxriylari bilan ko'plab uchrashuvlar o'tkazilishi o'z samarasini bermoqda.

– Har yili bolalar va o'smirlar o'rtasida poytaxt birinchi bahslari o'tkaziladi. Ana shu turnirlarning g'oliblari ham aynan «Paxtakor» bolalari bo'lishdi. Bu haqdagi fikrlaringizni eshitsak.

– Poytaxt birinchi bahslar oltita yosh toifasida tashkil etilgan bo'lsa, shu turnirlarning to'rttasida ham «Paxtakor» futbolchilari birinchi bo'lishdi. 1993-94-, 1997-, 1998- va 1999-yillarda tug'ilgan futbolchilar musobaqasining g'oliblari ham akademiyamizning bolalaridir. Umumjamoa hisobida yosh «Paxtakor»chilar 275 ochko to'plashdi va ikkinchi o'rinni egallagan «Bunyodkor» klubi jamoasini 32 ochkoga, Olimpiya

tarbiyalanuvchilari bilan o'yinlarda ham akademiyamiz a'zolari bosh sovringa egalik qilishni uddaladilar. «Paxtakor – 97» jamoasi ham Qozog'istonda, so'ngra Ukrainadagi xalqaro turnirda mahoratini to'liq namoyon etdi. So'ngra, shu jamoa Ukrainadagi xalqaro turnir guruh bosqichida uch uchrashuvda raqiblar darvozasiga javobsiz 18 ta to'p kiritgani ularning mahoratini to'liq namoyon etdi.

1999-yilda tug'ilgan o'smirlar jamoasi Koreyada o'tkazilgan bolalar futbol festivalida qatnashib, o'zbekistonlik yosh futbolchilarning yuksak tayyorgarligini namoyish etib qaytdilar.

– Shu o'rinda Italiyada o'tadigan «Koppa Kornevale» musobaqasi haqida ham gapirib bersangiz?

– Har yili yanvar oyining oxiri, fevralning dastlabki haftasida Italiyada xuddi shunday turnir o'tkazilishi an'anaga aylangan. Bunda dunyoning yetakchi klublari yoshlar jamoalari ishtirok etadi. Bu turnirga Toshkentning «Paxtakor» klubi muntazam yetti yildan beri taklif etilayotganini alohida ta'kidlash zarur.

Xullas, yosh «Paxtakor»chilar tez orada o'zbek futbol dovrug'ini kattalar o'rtasidagi musobaqalarda ham dunyoga taratishsa, hech kim ajablanmaydi. Demak, bolalar va o'smirlardan munosib o'rinbosarlar tayyorlashga katta e'tibor qaratayotgan «Paxtakor»ning ertasi porloq desak, adashmaymiz.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur.

Ma'mura MADRAHIMOVA
oqqa ko'chirdi



QORBOBONI SHOSHIRDI

Yangi yil keldi, kunlar Bir-birini quvlashib, Qorbobo shodon yurar, Sovg'alarin ulashib. Kichik ukam Bunyodga Berdi katta o'yinchoq, Kamolaga ulashdi, O'zi yurar qo'g'irchoq. Shunda jajji Ulug'bek, Hayratimiz oshirdi: - Oppoq qor bering,-deya, Qorboboni shoshirdi.



Mahbuba QO'LDOSHEVA, Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 281-maktabning 7-sinf o'quvchisi

1 Bola besh yoshgacha otaga - podshoh, o'n yoshgacha - do'st, yigirmagacha - gul, qirgqacha - og'ayni, qirqdan keyin ...? Toping-chi, qirqdan keyin u kim?

- a) xizmatkor;
- b) mustaqil inson;
- d) farog'atda yashovchi kishi.

2 Rabot nima? Qadimda bu so'z bizda nimani anglatgan?

- a) bino;
- b) musofirxona;
- d) karvonsaroy.

3 Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni qaysi so'zlar bilan boshlanadi? Eslab ko'ring!

4 Chavgon nima?

- a) to'pli xokkey;
- b) uchi bukuk tayog;
- d) klyushka.

qo'y olib kelishga so'z beraman. Sher debdi: - Agar o'zing ham qaytmasang-chi, unda qanday kelishamiz? Xola debdi: - Uyimga faqat shu yo'ldan boriladi. Albatta, qaytaman... Shunda Sher Bo'riga debdi: - Tezda xolani ustingga chiqarib ol!

ning ichiga kirib olib, kuyoviga: - Meni baland tepalikka chiqarib, dumalatib yubor, - debdi. Kuyov xolaning aytganini qilibdi. Qovoq dumalab-dumalab o'rmongacha yetib kelib, shiddat bilan Sher, Yo'lbars, Bo'rining yonidan o'tib ketibdi. Ular bir haftadan beri xolani kutishayotgan ekan. Qovoqning ortidan u to'xtaguncha yugurishibdi.

yuboringlar. Yo'lbars undan so'rabdi: - Nimaga seni dumalatib yuborishimiz kerak? Xola javob beribdi: - Men bilan quvlashmadoq o'ynashlaring uchun. Shunda Bo'ri sakrab turib debdi: - Birinchi bo'lib men dumalataman. Sher bo'rini chetga surib, yo'q, avval men, debdi. So'ng qovoqni kuch bilan itarib, dumalatib yuboribdi. Qovoq tezda dumalab ketibdi. Endi to'xtagan ekan, Yo'lbars ham yugurib borib qattiq dumalatib yuboribdi. Ular qovoqni quvlab borib, bir tepalikdan pastga dumalatib yuborishibdi. Qovoq dumalab-dumalab, xolaning qishlog'igacha yetib kelibdi va zarb bilan uning uyiga urilib, bo'lak-bo'lak bo'lib ketibdi. Xola qovoqning ichidan sog'-salomat chiqib, xursand bo'lib uyi tomon yuguribdi. Bo'ri, Yo'lbars, Sher tepalikdan uni tomosha qilib turishgan ekan. Qovoq ichidan chiqqan xolani ko'rganlarida, hayratdan ularndan shox o'sib chiqibdi. Shunda ular bir-birlariga xolaning hiylasiga aldanganliklari haqida hech kimga aytmaslikka va'da berishibdi. Lekin ular xabarchi qarg'aning bu voqealar haqida bir gappa o'n gap qo'shib allaqachon butun o'rmonga jar solganini bilishmas ekan.

Fors tilidan Dilshoda NURBOYEVA tarjimasida

YUMALAYDIGAN



(Ertak)



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda bir kekxa ayol yashagan ekan. Uning Jieyron ismli yakka-yu yolg'iz qizi Hieyron qishlog'ida yashar ekan. Bir kuni uning tilla kokilli o'g'il ko'rganiga haqida xabar keltirishibdi. Xola zudlik bilan kiyinib, yo'lga tushibdi. O'rmonning o'rtasiga yetganda, bir Bo'ri o'to'lanlar orasidan yugurib chiqib, unga shunday debdi: - Xolajon, yasanib-tusanib qayerga ketayapsiz? Xola javob bermasidan oq daraxt shoxlaridan Yo'lbars sakrab tushib debdi: - Xola, xolajon, tugun ko'tarib, zar ko'yaklar kiyib tong shardan qayerga yo'l oldingiz? Xola javob berishga o'z juftlagan ham ekanki, o'rmon podshohi Sher qamishzorlar orasidan sakrab chiqib debdi: - Salom berdik, qari Yo'lbars, qora Bo'ri. Yomon do'st holingni xarob qiladi, - keyin mehribonlik bilan xoladan so'rabdi: - Xolajon, sochlaringiz to'zga'ib, lash-lushlar bilan qayerga ketayapsiz? Xola, bechora qo'rqa-pisa javob beribdi: - Ketyapman, Hieyron tomon, azizim, Jieyron tomon. Keyin davom etibdi: - Sezib turibman, sizlar meni yemaysizlar, chunki, qoq suyak va quruq teridan iboratman. Ammo, agar menga hamroh bo'lib o'rmonning oxirigacha sog'-omon yetkazib qo'ysangiz, qaytayotganimda sizlarga uchta semiz-semiz

Bo'riga bu ish yoqinqiramaygina xolani ustiga mindirib olibdi va o'rmonning oxirigacha olib borib qo'yibdi. Onaxon manziliga yetib olgach, bo'lgan voqeani kuyoviga, qiziga aytib beribdi va hammalari aldangan Sher, Yo'lbars, Bo'rini masxara qilib kulishibdi. Bir haftadan so'ng xola uyiga qaytadigan bo'libdi. Ekinzorga borib bir katta qovoq olib kelishibdi. Xola ichi tozalangan qovoq-

Qovoq to'xtabdi. Sher qulog'ini qovoqqa tutib debdi: - Sh..! Nafas olayotganga o'xshaydi. - Ey qovoqvoy, sen bir kampirni uchta semiz-semiz qo'yalar bilan ko'rmadingmi? - deb so'rabdi Yo'lbars. - Yo'q, yo'q, aslo ko'r-ganim yo'q, - xolaning kulgisi qistab debdi: - Men qovoqman, yumalaydigan bir qovoqman. Xudo haqqi, meni dumalatib

ALLOMALAR
KITOB HAQIDA
Kitob - tafakkur qanotidir. OYBEK
Jahon ayvonida kitobdan yaxshiroq do'st bo'lmas. Abdurahmon JOMIY
Kitoblar, ustozlar va muallimlar hurmatini o'rniga qo'rganlar bu dunyoda ham, oxiraida ham saodat loqbusidir. Muhammad Husayn KOSHIFIY
Fazshi kitoblar o'ziga chortlovchi guksak tog'larga o'xshaydi. Bilim cho'qqisni zabt elganlar esa juda ko'p narsalarni, chunonchi, bilimlar va tajribalar boyoni yo'qligini o'z ko'zi bilan ko'radi, iqror bo'ladi. Onore de BALZAK
Kitob - barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrok, donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir. «Amir TEMUR tuzuklari»dan

BILASIZMI?
Laylaklar uchib ketayotib, yo'l-yo'lakay 10-15 daqiqa uxlab olishlari ham mumkin ekan.
Delfinlar bir ko'zi ochiq holda uxlashadi.
Kit ikki soniyada 2400 litr havoni tashqariga chiqaradi.
Tuyaqush tuxumining og'irligi 1,5 kilogrammga yetadi. Afrika qora tuyaqushining bo'yi 2,7 metrgacha, vazni esa hatto 100 kilogrammga yetadi.

TONG yulduzi
BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV
Dizaynerlar: Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin ORIPOV, Navbatchilar: Axtamqul KARIM, Yusuf ABDULLAYEV
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.
TAHRIR HAY'ATI: Avaz MARAHIMOV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbar RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (mas'ul kotib), Dilmurod RAHMATILAYEV, Dilshoda DADAJONOVA
Manzimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@bk.ru www.tongyulduzi.uz Tel: 244-27-25, 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10
«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 63996 Buyurtma N: J 829